


**Surxondaryo viloyatida
nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi**
2026-yil yanvar-mart oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

**I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi**

Surxondaryo viloyatida 2026-yil yanvar-mart oylarida o'rtacha oylik ish haqi 4 724,2 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,1 % ga o'sgan.

Yillar kesimda o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026-yilning yanvar-mart oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	4724,2	112,1
Termiz sh	6867,1	114,0
Oltinsoy	3250,0	117,2
Angor	3527,9	117,4
Bandixon	3266,9	114,5
Boysun	3602,5	112,2
Muzrabot	3599,7	116,7
Denov	3743,6	113,8
Jarqo'rg'on	3732,7	110,2
Qumqo'rg'on	3516,3	111,6
Qiziriq	3301,2	119,7
Sariosiyo	4121,3	111,9
Termiz	4197,7	122,1
Uzun	3347,2	116,0
Sherobod	3290,3	105,1
Sho'rchi	3480,3	114,5

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Termiz shahri 6 867,1 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Boysun tumanida 4 612,4 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 128,0 %), Termiz tumanida 4 900,8 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,7 %), Jarqo'rg'on tumanida 4 356,8 ming so'mni (116,7 %), Qiziriq tumanida 3 814,9 ming so'mni (115,6%), Bandixon tumanida 3 689,1 ming so'mni (112,9 %) va Sho'rchi tumanida 3 913,9 ming so'm (112,5 %)ni tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Denov tumanida 4 199,7 ming so'm (112,2 %), Sherobod tumanida 3 641,2 ming so'mni (110,7 %), Uzun tumanida 3 693,0 ming so'mni (110,3 %), Muzrabot tumaيدا 3 963,8 ming so'm (110,1 %), Qumqo'rg'on tumanida 3 834,7 ming so'mni (109,1 %), Angor tumanida 3 801,5 ming so'm (107,8 %), Oltinsoy tumanida 3 373,3 ming so'mni (103,8 %) hamda Sariosiyo tumanida 4 134,3 ming so'mni (100,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2026-yilning yanvar-mart oylariga oid bo'lib, 2025-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	5711,0	111,3
Qurilish	3542,9	84,9
Savdo	3139,4	102,8
Tashish va saqlash	8412,4	122,4
Yashash va ovqatlanish	1744,8	44,4
Axborot va aloqa	9367,6	117,9
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	12730,1	115,9
Ta'lim	4107,2	112,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3685,4	107,7
O'rtacha	4724,2	112,1

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'ati tashish va saqlash sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 122,4 % ni, ish haqi miqdori esa 8 412,4 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, Axborot va aloqa sohasida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 9 367,6 ming so'mni tashkil etib, o'sish 17,9 % ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va moliyaviy vositachilik faoliyati sohasida ish haqi miqdori 12 730,1 ming so'mni tashkil etib, 15,9 % ga, ta'lim sohasida o'rtacha ish haqi 4 107,2 ming so'mni tashkil etib, 12,8 % ga, sanoat sohasida esa 5 711,0 ming so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 111,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida 3 685,4 ming so'm ni tashkil etib, 7,7 % ga, savdo sohasida 3 139,4 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga, o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026-yilning 1-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 12 730,1 ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 6 670,6 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 5 482,1 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 4 514,6 ming so'mga, sanoat sohasida 2 564,3 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 1664,4 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dynamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 711,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sohasida 7 033,4 ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 9 162,6 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 4 140,8 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 3 871,9 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 139,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 7 417,4 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 3 684,6 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 2 580,2 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 412,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 6 811,1 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 9 546,8 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 2 681,9 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 9 367,6 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 1 280,0 ming so'mni, dastur yaratish va radiosyozlarni tashkil etish faoliyatida 5 950,4 ming so'mni, aloqa sohasi 10 083,7 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 12 730,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 16 361,8 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 12 608,0 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 107,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 11 342,2 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 819,5 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 038,4 mingni so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 158,6 ming so'mni tashkil etgan,



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik sub'ektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A.Astanaqulov
55 451-81-00 (7570)

Manzil:
Termiz sh At-Termiziy 7-uy